

MINTAQALARARO IQTISODIY TAFOVUTLARNI QISQARTIRISHNING ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Ro'ziboyeva Mushtariy Otabek qizi – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Biznes va boshqaruv” kafedrasida stajor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda mamlakatlararo mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning sabablari va oqibatlari tahlil qilingan. Unda tengsizliklar daromad darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarida qanday aks etishi ta'kidlangan. Mintaqaviy nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan siyosatni tushunish uchun Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribalari o'rganildi. Tadqiqotda mintaqaviy tafovutlarni qisqartirish barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik uchun juda muhim degan xulosaga kelindi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy tengsizlik, iqtisodiy rivojlanish, daromadlar tafovuti, infratuzilma, bandlik, innovatsiya, iqtisodiy siyosat.

Abstract. This study analyzes the causes and consequences of regional socio-economic disparities between countries. It highlights how inequalities are reflected in income levels, education, and health indicators. The experiences of Germany, China, and South Korea were studied to understand policies aimed at reducing regional disparities. The study concluded that reducing regional disparities is crucial for sustainable economic growth and social stability.

Keywords: regional inequality, economic development, income disparities, infrastructure, employment, innovation, economic policy.

Аннотация. В данном исследовании анализируются причины и последствия региональных социально-экономических различий между странами. Подчеркивается, как неравенство отражается на уровнях доходов, образования и показателях здравоохранения. Для понимания политики, направленной на сокращение региональных различий, были изучены опыт Германии, Китая и Южной Кореи. В результате исследования сделан вывод о том, что сокращение региональных различий имеет решающее значение для устойчивого экономического роста и социальной стабильности.

Ключевые слова: региональное неравенство, экономическое развитие, неравенство доходов, инфраструктура, занятость, инновации, экономическая политика.

Ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy faoliyat samaradorligi va aholi turmush darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, bu holat daromadlar, ta'lim darajasi hamda

sogʻliqni saqlash koʻrsatkichlaridagi farqlar orqali namoyon boʻladi¹. Hududlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlar adolat tamoyillariga zid holatlarni yuzaga keltirib, mamlakat miqyosida tengsizlikning chuqurlashuviga olib keladi. Bunday tafovutlar avloddan avlodga oʻtuvchi imkoniyatlar farqi orqali namoyon boʻlib, aholining taʼlim, bandlik va ijtimoiy yuksalish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, hududiy nomutanosibliklar iqtisodiyotning umumiy samaradorligiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi, chunki ayrim mintaqalarda mavjud insoniy va iqtisodiy salohiyat yetarli darajada ishga solinmaydi. Natijada, resurslardan toʻliq foydalanilmasligi milliy iqtisodiy oʻsish surʼatlarining sekinlashishiga sabab boʻladi.

Kengroq maʼnoda olganda, hududiy tafovutlar, jumladan shahar va qishloq oʻrtasidagi farqlar, jamiyatda ijtimoiy keskinlik va salbiy holatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bunday tafovutlar siyosiy qutblashuvni ragʻbatlantiradi (Wilkinson, 2019)², populistik kayfiyatlarning kuchayishiga hamda shahar elitalariga nisbatan norozilik va qarshiliklarning ortishiga sabab boʻladi (Rodríguez-Pose, 2018; Kessler, 2018; Muro va Liu, 2016; Shearer, 2016)³. Natijada, mamlakatlarning ijtimoiy tuzilmasi va milliy birdamligiga jiddiy tahdid yuzaga keladi hamda hududiy tafovutlar etnik, irqiy, lingvistik yoki diniy boʻlinishlar bilan uygʻunlashgan hollarda, ular keskin mojarolarga ham olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy faoliyat va farovonlik darajalari mamlakat ichidagi hududlar boʻyicha sezilarli darajada farq qiladi, bu nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ham kuzatiladi. Ushbu tengsizlikni ishlab chiqarish yoki daromad koʻrsatkichlariga qarab aniqlash mumkin. Rivojlangan iqtisodiyotlarda yetakchi hududlardagi aholi boshiga real YaIM (YaIM – yalpi ichki mahsulot) oʻrtacha hisobda orqada qolgan hududlarga nisbatan 70 foizga yuqoridir. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda esa hududlararo farqlar yanada kattaroq boʻlib, rivojlangan davlatlardagiga nisbatan taxminan ikki baravar kattadir. Bunday hududlararo farqlar mehnat bozori koʻrsatkichlarida ham namoyon boʻladi (masalan, mehnat unumdorligi, bandlik darajasi va ish haqi) va inson rivojlanishi indikatorlarida (masalan, taʼlim va sogʻliq koʻrsatkichlari) ham aks etadi. Tadqiqotda ilgʻor xorijiy mamlakatlar tajribasidan namuna sifatida Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya olingan.

1. Germaniya, taxminan 84,4 million aholiga ega boʻlgan, yuqori daromadli va kuchli iqtisodiyotga ega mamlakatdir. Biroq mamlakatda hududlararo tafovutlar mavjud

¹ <https://pdfs.semanticscholar.org/37e6/f8ed05447ff2dbef9172e8db2a6f1089d2da.pdf>

² Wilkinson, R. (2019). *The Political Power of Inequality*

³ Rodríguez-Pose, A. (2018). *The revenge of the places that don't matter (and what to do about it)*. Cambridge Journal of Regions, Economy and Society. Kessler, S. (2018). *Populism and regional inequality*. Journal of Economic Geography. Muro, M., & Liu, S. (2016). *Digitalization and regional divides*. Brookings Institution. Shearer, E. (2016). *Urban-rural divides and political behavior*. Pew Research Center.

bo‘lib, ular ayniqsa iqtisodiy jihatdan rivojlangan g‘arbiy va janubiy hududlar bilan nisbatan kam rivojlangan sharqiy federal yerlar o‘rtasida yaqqol namoyon bo‘ladi⁴. So‘nggi 20 yil davomida Germaniya tobora ko‘p madaniyatli mamlakatga aylanib bormoqda, bu asosan sof immigratsiya hajmining sezilarli darajada oshgani bilan izohlanadi. 2023-yilda aholining qariyb 30 foizi o‘zi yoki ota-onasi orqali migratsion kelib chiqishga ega bo‘lgan⁵. 2024-yil noyabriga qadar bo‘lgan 12 oy davomida sof immigratsiya hajmi 431 342 kishiga yetdi, bu asosan Ukraina va Suriyadan kelgan qochqinlar hisobiga yuz berdi⁶. Aholining bunday tobora ortib borayotgan xilma-xilligi jamiyatni boyitadi, biroq bir vaqtning o‘zida ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi, xususan, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlaridagi tengsizliklar va migrantlar o‘rtasida ishsizlik darajasining nisbatan yuqoriligi hisobiga bo‘lishi mumkin.

Germaniya hukumati ushbu jarayonlarning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida keng ko‘lamli mintaqaviy siyosat choralari amalga oshirmoqda. Bu borada fiskal tenglashtirish mexanizmlari, past rivojlangan hududlarni maqsadli qo‘llab-quvvatlash dasturlari, infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion klasterlarni rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi⁷.

1-jadval

Germaniyada hududlararo tafovutlarni kamaytirish siyosatining asosiy yo‘nalishlari

№	Siyosat yo‘nalishi	Mazmuni
1	Fiskal tenglashtirish tizimi	Yuqori daromadli hududlardan past daromadli hududlarga byudjet mablag‘larini qayta taqsimlash orqali hududlarning fiskal quvvatini tenglashtirish, ijtimoiy infratuzilma, bandlik va ta‘lim xizmatlarini hududlar bo‘yicha barqaror taqsimlash ⁸

⁴ Immel L, Peichl A. Regional Inequality in Germany: Where Do the Rich Live and Where Do the Poor Live? ifo Schnelldienst. 2020;73(05):43-7

⁵ Statistisches Bundesamt (Federal Statistical Office) Destatis. Statistical Report - Microcensus - Population by Migration Background - First Results 2023. Available from: <https://www.destatis.de/DE/Themen/Gesellschaft-Umwelt/Bevoelkerung/Migration-Integration/Publikationen/Downloads-Migration/statistischer-bericht-migrationshintergrund-erst-2010220237005.html>.

⁶ Destatis. Migration across Germany’s borders, by selected citizenships and months. Destatis. Available from: <https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration/Tables/migration-month-02.html#fussnote-1-1176396>.

⁷ German Federal Ministry of Finance (BMF, 2023)

⁸ OECD (2020); German Federal Ministry of Finance (2023); Heinemann & Janeba (2014)

2	“Solidarity Pact” dasturlari va Sharqiy Germaniyani rivojlantirish	“Solidarpakt I” va “Solidarpakt II” doirasida Sharqiy Germaniya hududlarini iqtisodiy tiklash, infratuzilma modernizatsiyasi, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, bandlikni yaxshilash va ijtimoiy sohani rivojlantirish ⁹
3	Innovatsion klasterlar va sanoat modernizatsiyasi	Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, “Mittelstand” siyosati orqali kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, klaster siyosatini kuchaytirish ¹⁰
4	Infratuzilma modernizatsiyasi va inson kapitaliga sarmoya	Transport-logistika, energetika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ta’lim tizimi va kasb-hunar tayyorlovini kuchaytirish, mehnat bozorining moslashuvchanligini ta’minlash orqali hududiy tafovutlarni yumshatish

Germaniyada hududlararo tafovutlarni kamaytirish siyosati asosan hududlar moliyaviy imkoniyatlarini tenglashtirish, iqtisodiy jihatdan sust mintaqalarga qo‘shimcha yordam berish va ularning infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Sharqiy Germaniya hududlarini rivojlantirish dasturlari orqali sanoat, bandlik va ijtimoiy soha barqaror tiklandi. Innovatsion klasterlar yaratilib, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va kichik biznes faol qo‘llab-quvvatlandi. Transport, energetika va raqamli infratuzilma yangilandi, ta’lim va kasb-hunar tizimi kuchaytirildi. Natijada iqtisodiy imkoniyatlar mintaqalar bo‘yicha nisbatan barqaror va adolatli taqsimlanishiga erishildi.

2. 25 yil avval Xitoyning ko‘plab jihatlari Osiyodagi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga o‘xshash edi: aholining juda ko‘pligi, jon boshiga daromadning pastligi va aholi soniga nisbatan resurslarning taqchilligi. Umuman olganda, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari yaxshi o‘shishga erishdi, biroq Xitoyning natijalari ayniqsa ajralib turadi. Masalan, 1990–2005-yillar davomida Xitoyda jon boshiga o‘shish sur‘ati o‘rtacha 8,7 foizni tashkil etdi. Hindistonda bu ko‘rsatkich 4 foiz, Xitoy va Hindistondan tashqari rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida esa 2,7 foiz atrofida bo‘ldi.

⁹ BMWK (2020); European Commission (2017); Burda & Hunt (2011)

¹⁰ OECD (2019); BMWK (2022); Porter (2003)

Xo'sh, nega aynan Xitoy Osiyodagi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda ancha tez o'sdi? Bu albatta ko'plab omillar bilan bog'liq murakkab savol, biroq uchta asosiy omilni alohida ta'kidlash mumkin:

Birinchidan, Xitoy qo'shni davlatlarga nisbatan inson kapitali jihatidan yaxshiroq boshlang'ich bazaga ega edi.

Ikkinchidan, bu davr mobaynida Xitoy Hindiston va ko'plab boshqa Osiyo mamlakatlariga qaraganda tashqi savdo hamda xorijiy investitsiyalar uchun ancha ochiq bo'ldi.

Uchinchidan, Xitoy xususiy sektor uchun Hindistonga nisbatan yaxshiroq investitsiya muhitini yaratdi. Albatta, "o'rtacha hisobda" degan ibora muhim, chunki masalan, Tailand ham juda yaxshi investitsiya muhitiga ega bo'lgan va tez o'sgan, biroq u hudud jihatidan ancha kichik bo'lib, Indoneziya, Bangladesh va Pokiston kabi yirik davlatlar bilan solishtirganda hajman kichikdir¹¹.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo'yicha Xitoy tajribasini o'rganganda, Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni imtiyozlar orqali jalb qilib, "iqtisodiy o'sish" o'choqlarini barpo qilish uchun mo'ljallangan. Xitoy maxsus iqtisodiy zonalarida YaIM ning 22 foizi yaratiladi. Mamlakatga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 45 foizi va eksportning 60 foizi aynan maxsus iqtisodiy zonalarining ulushiga to'g'ri keladi.

1984-yildan dastlab dengiz sohillari yaqinida joylashgan 15 ta shahar hamda 4 ta yirik shaharda, 2020-yildan boshlab esa mamlakatning barcha yirik va o'rtacha kattalikdagi shaharlarida 15 ta erkin savdo zonasi, 32 ta makroiqtisodiy va texnologik rivojlanish zonasi, 53 ta yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish zonasi tashkil etildi. Natijada bu maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy rivojlanish sur'atini tezlashtiruvchi "akselerator" rolini o'ynay boshladi¹².

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarining jadal rivojlanishiga quyidagi omillar turtki bo'lgani aniqlandi¹³:

- maxsus iqtisodiy zonalar direksiyasiga markaziy hukumatning roziligisiz infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qilishga ruxsat berildi;
- maxsus iqtisodiy zonalaridagi korxonalar o'zlarining investitsiya, innovasiya, ishlab chiqarish va marketing qarorlarining katta qismini mustaqil qabul qiladi;

¹¹ <https://documents1.worldbank.org/curated/en/182041468241155669/pdf/wps4253.pdf>

¹² <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/maxsus-iqtisodiy-zonalarni-rivojlantirish-buyicha-xitoy-tajribasi>

¹³ <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/89a96c23-9c3c-5f2d-8b4a-1a1ccbc91945>

Zeng, Douglas Zhihua (2015). Building Engines for Growth and Competitiveness in China: Experience with Special Economic Zones and Industrial Clusters.

- maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investisiyalar uchun maxsus soliq imtiyozlari berilgan va ularning mahsulotlari asosan eksportga yo‘naltirilgan;
- maxsus iqtisodiy zonalarda iqtisodiy faoliyat asosan bozor tamoyillari asosida boshqariladi va ularga xalqaro savdoda katta mustaqillik berilgan;
- 2019-2020 yillarda Xitoyda 24 ta yangi transchegaraviy elektron-tijorat zonalari ochildi;
- Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar asosan yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan.

Ushbu omillarni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlariga savdo, investisiyalar, innovasiyalar va infratuzilma masalalari bo‘yicha mustaqil qarorlarni qabul qilish vakolatini, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini berish hamda hududlararo tizimli joylashtirish kabi jihatlariga e‘tibor qaratishni tavsiya etish mumkin.

3. Janubiy Koreyada mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalasi uzoq yillardan beri davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Poytaxt Seul va uning atrofidagi hududlar bilan chekka mintaqalar o‘rtasida sanoat rivoji, bandlik va daromad darajasida sezilarli farqlar mavjud. Shu sababli hukumat hududiy muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan maxsus dastur va strategiyalarni ishlab chiqqan. Infratuzilmani rivojlantirish, davlat institutlarini hududlarga ko‘chirish va sanoat klasterlarini yaratish ana shunday choralar jumlasidandir. Ushbu yondashuvlar mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Janubiy Koreya tajribasi mintaqalararo tafovutlarni qisqartirishda faol davlat ishtirokining muhimligini ko‘rsatadi.

OECD statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda Janubiy Koreya tashkilotga a‘zo mamlakatlar ichida nisbiy qashshoqlik eng yuqori bo‘lgan davlat sifatida qayd etilgan bo‘lib, aholining qariyb oltidan biri qashshoqlik chegarasidan past sharoitda yashaydi. Yoshlar orasida ishsizlik muammosi doimiy tus olgan, mehnat bozorida band aholining 30 foizidan ortig‘i barqaror bo‘lmagan, vaqtinchalik yoki kafolatsiz ish o‘rinlarida faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ish haqi tafovuti OECD davlatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qolmoqda. Demografik vaziyat ham jiddiy tashvish uyg‘otmoqda: 2025-yilda tug‘ilish ko‘rsatkichi 0,75 darajasida saqlanib qolgan bo‘lib, bu 2023-yildagi 0,72 ga nisbatan biroz o‘shishni bildirsa-da, iqtisodiy

noaniqlik va ijtimoiy harakatchanlikning cheklanganligi bilan bog‘liq xavotirlar hanuz dolzarbligicha qolmoqda¹⁴.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar singari, Janubiy Koreyada daromadlar notekisligi so‘nggi o‘n yilliklar davomida sezilarli dinamikani namoyon etdi. Rasmiy davlat ma‘lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, daromadlar o‘rtasidagi tafovut 1990-yillarning boshlaridan boshlab kengaya boshlagan. Ushbu jarayon 1998-yilda yuz bergan Osiyo moliyaviy inqirozidan keyin yanada keskinlashgan. Qisqa muddatli barqarorlashuvdan so‘ng, tengsizlik ko‘rsatkichi izchil ravishda oshishda davom etib, 2008-yilga kelib eng yuqori darajaga yetgan. Keyinchalik esa, 2010-yillar davomida daromadlar tengsizligi ma‘lum darajada qisqarish tendensiyasini ko‘rsatgan (Lee va boshq., 2020)¹⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Case, A., & Deaton, A. (2020). *Deaths of Despair and the Future of Capitalism*. Princeton University Press
2. Wilkinson, R. (2019). *The Political Power of Inequality*
3. Rodríguez-Pose, A. (2018). *The revenge of the places that don't matter (and what to do about it)*. Cambridge Journal of Regions, Economy and Society.
4. Kessler, S. (2018). *Populism and regional inequality*. Journal of Economic Geography.
5. Muro, M., & Liu, S. (2016). *Digitalization and regional divides*. Brookings Institution.
6. Shearer, E. (2016). *Urban–rural divides and political behavior*. Pew Research Center.
7. Immel L, Peichl A. Regional Inequality in Germany: Where Do the Rich Live and Where Do the Poor Live? ifo Schnelldienst. 2020;73(05):43-7
8. Destatis. Migration across Germany's borders, by selected citizenships and months. Destatis. Available from: [https://www.destatis.de/EN/ Themes/Society-Environment/Population/Migration/Tables/migration-month-02.html#fussnote-1-1176396](https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration/Tables/migration-month-02.html#fussnote-1-1176396).
9. German Federal Ministry of Finance (BMF, 2023)
10. OECD (2020); German Federal Ministry of Finance (2023); Heinemann & Janeba (2014)
11. BMWK (2020); European Commission (2017); Burda & Hunt (2011)

¹⁴ <https://thediplomat.com/2025/07/beyond-the-miracle-inequality-in-south-koreas-new-economy/#:~:text=According%20to%20Statistics%20Korea%2C%20the,estate%20gains%20at%20the%20top.>

¹⁵ <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0276562423001269>